



## XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 11 - avgust

VI-68-144-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

**Tumanda qonuniylikni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish borasida 2022-yil 6 oy davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman prokurori S.Saidovning hisoboti to'g'risida**

Tumanda qonuniylikni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish borasida 2022-yil 6 oy davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman prokurori S.Saidovning hisobotini tinglab xalq deputatlari tuman Kengashining oltmish sakkizinchi sessiyasi

### QAROR QILADI:

1. Tumanda qonuniylikni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish borasida 2022-yil 6 oy davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman prokurori S.Saidovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman prokurori (S.Saidov)ga:

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda Davlat dasturlari ijrosini ta'minlash;

fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish;

mansabdor shaxslarning o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishdagi

mas'uliyatini oshirish choralarini belgilash va amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi, tuman hokimligiga kelgan jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini qonunda belgilangan muddatda ko'rib chiqilishini ta'minlash;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan dasturlar ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, kichik va o'rta biznesni keng qo'llab-quvvatlash va faoliyatiga to'siq bo'layotgan omillarni bartaraf etish choralarini belgilash va amalga oshirish;

sog'liqni saqlashga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

uzoq muddatga chetga chiqib ketgan va qaytib kelgan fuqarolar bilan ishlashda ijroiya hokimiyati hamda o'zini-o'zi boshqarish organlarining uzviy hamkorligida ta'sirchan choralar ko'rish;

tumanda jinoyatchilikka, ayniqsa, korrupsiya va poraxo'rlik, tovlamachilik, firibgarlik kabi jinoyatlarga va uyushgan jinoyatchilikning boshqa ko'rinishlariga qarshi kurashish borasida keng jamoatchilik bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar o'tkazib borish:

aholi o'rtasida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining huquqiy targ'ibotini yanada kengaytirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, bunda, asosiy e'tiborni o'zini-o'zi boshqarish organlariga qaratish topshirilsin.

3. Tuman prokurori (S.Saidov) hamda tegishliligi bo'yicha mutasaddi tashkilot va korxonalariga:

tumanda olib borilayotgan islohotlar jarayonida, barcha jabhalarda qonun ustuvorligini ta'minlash, jumladan "Qonun ustuvor - jazo muqarrar" tamoyiliga qat'iy rioya qilinishi;

aholi istiqomat qilayotgan joylar, mehnat jamoalarida qonuniylikni ta'minlash, odamlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, aholi, ayniqsa xotin-qizlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik, jinoyatchilik, o'z joniga qasd va suiqasd qilish holatlarini oldini olish bilan bog'liq tadbirlarni muntazam rejali o'tkazib borishi ta'minlansin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (T.Radjabov), tuman prokurori (S.Saidov), tuman hokimining o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar bo'limi (N.Mamadiyurova), tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (A.Shodmonov)larga:

jinoyatchilik va huquqbuzarliklar, oilaviy ajrimlar eng ko'p qayd etilgan mahalla fuqarolar yig'inini aniqlash, bunday holatlarning oldini olish bo'yicha aniq choralar belgilash va ular bilan doimiy tushuntirish-targ'ibot ishlarini tashkil etish;

eng namunali mahalla fuqarolar yig'inini aniqlab, rag'batlantirish choralarini ko'rish va ularning ish faoliyatlarini ommalashtirish uchun takliflar kiritish topshirilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (T.Radjabov) va tuman hokimining sohalar bo'yicha o'rinbosarlari zimmlariga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**S.Astonov**